

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOV ALISHER USUBJON O'G'LI**

**IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY  
TARBIYASIGA TA'SIRI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro-2025**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Madraximov Alisher Usubjon o‘g‘li**

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri

(ijtimoiy-falsafiy tahlil).....5

**Мадрахимов Алишер Усубжон угли**

Влияние социальных сетей на духовно-нравственное воспитание молодежи

(социально-философский анализ) .....23

**Madraximov Alisher Usubjon ugli**

The impact of social networks on the spiritual and moral education of youth

(a socio-philosophical analysis) .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOV ALISHER USUBJON O'G'LI**

**IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY  
TARBIYASIGA TA'SIRI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Buxoro-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fal1491 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Pardayeva Marhabo Davlatovna**

falsafa fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarova Nigora Olimovna**

falsafa fanlari doktori, professor

**Turdiyev Bexruz Sobirovich**

falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "10" oktyabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (728 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "26" sentjabr kuni tarqatildi.

(2025 yil "26" sentjabr dagi 33 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Muzaffarov F.D.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafadoktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan o'zgarishlar va raqamli kommunikatsiyalar makonining kengayib borayotganligi sharoitida jamiyat taraqqiyotining barcha qatlamlariga chuqur kirib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, xulq-atvori va hayotiy tanlovlarini bevosita shakllantiruvchi omilga aylanmoqda. Bu jarayonda ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi ham yangi chaqiriqlar va imkoniyatlarni, jumladan, bir tomondan bilim, hamjihatlik, fuqarolik faolligi va ijodkorlikni rag'batlantirishni talab etsa, ikkinchi tomondan esa kiberzo'ravonlik, destruktiv targ'ibot, axloqiy relyativizm, ma'lumotlar ishonchliligi muammolarini bartaraf etishni talab etmoqda. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi bilan o'zaro aloqadorligini tizimli yondashuv va praksiologik mezonlarda talqin qilish, shaxsiy rivojlanish bilan jamiyat taraqqiyotini uyg'unlashtirish tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda xavfsizlik, kontent sifati, "o'zini anglash" jarayoniga ta'sir, kiberzo'ravonlik, profilaktika va media savodxonlik zaruratiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ijtimoiy aloqadorlik, yolg'izlikni kamaytirish, ko'nikmalarni kuchaytirishda samarali baholanayotgan, tanqidiy fikrni rivojlantirishga qaratilgan va ijtimoiy kapitaliga ta'siri bor tarmoqlarning yoshlar ongidagi salbiy tasavvurlarni ijobiy g'oyalarga aylantirish, voqea-hodisalarni ijobiy tomonlari bilan tushuntirish va yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan jihatlariga e'tibor kuchaymoqda. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sirini oldini olish texnologiyalari, ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalarida axborot va psixologik xurujlarning siyosiy barqarorlik hamda jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish imkoniyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratish, yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, to'g'ri tarbiyalash, zararli ta'sirlardan asrash va o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga oid chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "... ba'zi yoshlarimizda internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi va madaniyati yetarli emas. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy qadriyatlarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etish uchun yoshlarimizning kuchi salohiyati ham yetarli. Hamma gap ularning mana shu ezgu yo'lda belini mahkam bog'lab, astoydil harakat qilishiga bog'liq. Yoshlarimiz kelajakda bizning munosib vorislarimiz bo'lsin desak, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz va eng muhimi, ularni qiynayotgan muammolarni aniqlab, zudlik bilan hal etishimiz darkor"<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarda ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida yuzaga kelgan axloqiy o'zgarishlarni tahlil etish hamda konseptual ma'naviy-tarbiyaviy mezonlarini yangilashga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: "О'zbekiston", 2024. – Б. 246-247.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalaririvojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar va vositalar muammosi turli davrlarda falsafa, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi soha olimlarining tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib kelingan. Mazkur tadqiqotlarni umumlashtirgan holda, ularni bir nechta asosiy guruhlariga ajratish mumkin. *Birinchi* guruhga qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim mutafakkirlarining, jumladan, qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy, yunon faylasuflari Platon va Aristotel, shuningdek, Rim mutafakkiri Sitseronning muhim nazariy qarashlarini kiritish mumkin. Shu bilan bir qatorda, o‘rta asrlar Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Nizomulmulk kabi ulamolarning yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi dialektik munosabat, axloqiy prinsiplar va axloqsizlik mohiyati, o‘zaro qarama-qarshiliklar va ularning paydo bo‘lish manbalari, jamiyat va shaxslar o‘rtasidagi aloqalarni adolat va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan holda rivojlantirish zaruratiga doir ilmiy meroslarini kiritish maqsadga muvofiq<sup>2</sup>.

*Ikkinchi* guruhga G‘arbda Uyg‘onish davrida yashab ijod qilgan mutafakkirlar N.Makiavelli, T.Gobbs, J.Lokk, J.J.Russoning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri yuzasidan mulohazalari kiradi. Virtual tahdidlarning siyosiy mazmun-

---

<sup>2</sup> Конфуций. Сухбатлар ва мулоҳазалар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.; Платон. Политик. Законы. Послезаконие. Письма. – М.: Письма, 1999.; Аристотель. Никомахова этика. – Электронная библиотека “Гражданского общества”.: Электронный ресурс. <http://www.civisbook.ru>; Cicero. De Officiis – London: William Heinemann LTD New York: G.R Putn, 1913.; Беруний. Танланган асарлар. 1 жилд. – Ташкент: Фан, 1968.; Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.; Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007.; Абу Али ибн Сино. Саломон ва Ибсол. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.; Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). Иккинчи тўлдирилган, қайта ишланган нашр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008

mohiyati, strategik maqsad va vazifalarning ayrim jihatlari K.Doych, D.Iston, G.Almond, D.Koulman, L.Pay, U.Shramm, T.Adorno, M.Xorkxaymer, G.Markuze, Y.Xabermas, G.Shiller, D.Bell, M.Maklyuen, Y.Masuda, E.Toffler, K.Kolin, N.Moiseyev kabilar ilmiy izlanishlar olib borgan<sup>3</sup>.

*Uchinchi* guruhga MDH davlatlari olimlaridan M.S.Bezbogova, I.L.Sergeeva, G.Ashirbekova, A.Abylkhanova, C.Jumabaeva, R.Ismailova ilmiy izlanishlarini kiritsak maqsadga muvofiq. Ushbu mualliflarning asarlarida globallashuv konsepsiyasi, axborot xavfsizligi, uning milliy ma'naviyat va shaxslarning dunyoqarashiga ta'siri, virtuallashuv, millatlararo aloqalar va ularning taraqqiyot genezisi, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga psixologik ta'siri, shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ijtimoiy tarmoqlarning roliga doir masalalarga alohida e'tibor qaratilgan<sup>4</sup>.

Mamlakatimizda globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashining shakllanishini belgilab beruvchi axborotlashgan jamiyat, axborot tahdidi, axborot xurujlari, dunyoning mafkuraviy manzarasi, ijtimoiy tarmoqlar hamda ularning inson ongiga ta'siri borasida tadqiqotlar Sh.To'rayev, A.Muminov, J.Ramatov, B.Turayev, Sh.Murodova, R.Nizomova, I.Saifnazarov, S.Jabborova, Muhammad Amin Yahyo, Z.O'lmasxo'jayev, D.Tashmuxamedova tomonidan olib borilgan. Q.Nazarov, M.Pardayeva, N.Safarova, S.Choriyev, A.Xuseynova, A.Sharipov, B.Turdiyev tadqiqotlarida jamiyat barqarorligi, yoshlar tarbiyasi, aholining farovon va tinch yashashida axloqning, ma'naviyatning va albatta qonunlarning o'rni tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Макиавелли Н. Сочинения / Н.Макиавелли. – СПб.: Кристалл, 1996. – 615 с.; Гоббс Т. Избранные произведения: в 2 т. / Т.Гоббс. – М.: Мысль, 1989. Т. 2. – 715 с.; Локк Дж. Сочинения: В 3 т. / Монтеске Ш. О духе законов / Ш.Монтеске. – М.: Мысль, 1999. – 672 с.; Жан Жак Руссо. Об общественном договоре: Трактаты. – М.: Терра-книжный клуб; Канонпресс, 2000. – 544 с.; Deulsh K. The Nervous Systems of Government: Models of Political Communication and control. – London: Free Press of Glencoe, 1963.; Easlon D. A Framework for Political Analysis. – Chicago: Cambridge University Press, 02 September 2013.; Almond G.A., Coleman J.S. Politics of the Developing Areas. Princeton, – Princeton New Jersey: University Press, 1960.; Pye Lucian. "Political Communication." In The Blackwell Encyclopedia of Political Institutions. – Oxford: Wiley-Blackwell, 1987.; Schramm W. Mass Media and National Development // The Role of Information in the Developing Countries. – Stanford, California: Stanford University Press, 1964; Adorno T., Horkheimer M. Dialectic Of Enlightenment Philosophical Fragments. – Stanford: Stanford university press, 2002; Маркузе Г. Одномерный человек: Исследование идеологии развитого индустриального общества. – М.: REFLBook, 1994.; Habermas J. The Structure Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: The MIT Press, 1991.; Шиллер Г. Манипуляторы сознанием: Пер. с англ.! Предисл. Я. Засурского. – М.: Мысль, 1980.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: Опыт социального прогнозирования. – М.: Академия, 2004.; Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. – М.: Жуковский КАНОН-Пресс-Ц. 2003.; Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. – Washington D.C.: World future society, 1981.; Тоффлер Э. Третья волна. – М.: ООО "Фирма "Издательство АСТ", 2004.; Колин К.К. Информатизация общества и социальная информатика // ВЕСТНИК Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2009 / 3 (19); Моисеев Н. Расставание с простотой. – М.: "Аграф", 1998

<sup>4</sup> Безбогова М.С. Социальные сети как фактор формирования социальных установок современной молодежи: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Москва, 2017.; Сергеева И.Л. Роль социальных сетей в формировании социокультурных пространств на примере интернет-сервиса "Твиттер": Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Москва, 2017.; Ashirbekova G., Abylkhanova A., Akseiit G., Akynbekova A., & Yermaganbetova Z. (2025). Image of Central Asian leaders in the world media space: theory and practice. Review of Communication, 25(2), 109-123.; Jumabaeva C., & Ismailova R. (2024). Web 2.0 in higher education: Difference in usage and perception between Kazakh and Kyrgyz students. E-Learning and Digital Media, 0(0).

<sup>5</sup> Тўраев Ш. Виртуал олам: қарамлик ва унинг олдини олиш масалалари. // Наманган давлат университетининг илмий ахборотномаси. – Наманган, 2023. 3-сон.; Муминов А. Ахборотлашган жамият ва шахсининг ахборот маданиятини шакллантириш муаммолари // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2012. 3-сон.; Раматов Ж. Глобаллашув шароитида тинчлик ва барқарорликка таҳдид соловчи ғоявий, мафкуравий ва

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, yoshlar tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Lekin ilmiy tadqiqotlarida globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bevosita hamda bilvosita maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmaganligi sababli ushbu dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy rakursda tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini tadqiq etish;

zamonaviy jamiyatda yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar rolini ochib berish;

ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanayotgan mafkuraviy manzaraning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish;

ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirini bartaraf etish tamoyillari va funksiyalarini asoslab berish;

O‘zbekistonda yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirini bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

ахборот хуружларига қарши курашнинг маънавий-маърифий усуллари ва воситалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2020.; Тураев Б.О. Борлик (фалсафий таҳлил). – Самарқанд-Тошкент: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, 2022.; Муродова Ш. Ижтимоий тармоқ “сўқмоқ”лари // Тафаккур, – Тошкент, 2013. 4-сон.; Низомова Р. Глобаллашув жараёнида ёшлар интернет тармоғидан фойдаланишининг статистик таҳлили. // “Дунё глобаллашув жараёни ва Ўзбекистон ёшлари” мавзусидаги онлайн халқаро ёшлар илмий-амалий ва назарий конференцияси мақолалар тўплами – Тошкент: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020.; Саифназаров И. Виртуал олам ва унинг ёшларимиз маънавияти учун хавф-хатарлар // “Ўзбекистон ёшлар тарбияси ва маънавий-маърифий ишларнинг натижадорлиги: муаммолар ва ечимлар” илмий-амалий конференция материаллари тўплами – Фарғона: “Фарғона”, 2018.; Жабборов С. Пинҳона тажовуз // Тафаккур. – Тошкент, 2013. 3-сон.; Муҳаммад Амин Яҳё. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Тошкент: Мовороуннахр, 2016.; O‘lmasxo‘jayev Z.A. Globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri: Siyo. fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2023; Ташмухамедова Д.Г. Молодежь Узбекистана в виртуальной среде. Монография. – Ташкент: Complex Print, 2023. – 232 с; Nazarov Q. National idea and development strategy of Uzbekistan. // National Society of Philosophers of Uzbekistan – Tashkent, 2019.; Pardayeva M.D. Mustaqillik va yangi O‘zbekiston ma’naviyati // Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2021.; Safarova N.O. Terrorizm (tarixiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Noshir. 2009.; Choriev A.S., Rahmatova D. Factors threatening personal security in uzbekistan //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2022. – T. 2. –№. 4. – P. 62-68.; Хусейнова А.А. Янги Ўзбекистон шароитида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг асосий омиллари // Журнал правовых исследований. – 2022. – Т. 7. – №. 5.; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс. фан. док. (DSc) ... дис. автореф. – Бухоро: БухДУ, 2021; Turdiev B. Socio-Philosophical Analysis Of Society’s Ideosphere. // Indonesian Journal of Social DevelopmentVolume: 2, Number 1, 2024, Page: 1-8.;

**Tadqiqotning obyektni** ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sir etish jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga aksiologik-praksiologik ta'sir etish mexanizmlari, institutsional jihatlari va qonuniyatlari hamda prinsiplarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil, so'rovnomalar kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sirining oldini olishda an'anaviy (ichki va tashqi targ'ibot, milliy kontentlarni boyitish, qarshi hujum) usullarni zamonaviy texnologiyalar (manipulyativ texnikalarni aniqlash va neytrallashtirish, barqaror ma'naviy ideal yaratish) bilan uyg'unlashtirish jozibadorlik va raqobatbardoshlikni oshirishi, shaxsiy faoliyatda barqaror muhitni shakllantirishi asoslab berilgan;

yoshlarning ijtimoiy mas'uliyat, demokratik qadriyatlar va fuqarolik faolligi kabi qarashlari dinamikasida ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalari haqiqatni yolg'ondan ajratish, siyosiy jarayonlarga xolisona baho berish va ongni manipulyatsiyadan himoya qilishda asosiy ma'naviy tayanch ekanligi, ochiq va pragmatik faol islohotlar esa siyosiy tizimga ishonchni kuchaytirishi hamda amaliy samaradorlik, natija va mas'uliyat mezonlari asosida baholashi, shaxsiy rivojlanish omillari erkin fikrlash, tanqidiy tafakkur va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi aniqlashtirilgan;

ijtimoiy tarmoqlar vositasida axborot-psixologik xurujlarning ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy taraqqiyotga salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladigan metod va texnologiyalar ("Tasvirlar zarbasi", "xavfsiz aloqa tizimi", ijtimoiy tarmoqlarda "fakt-cheeking")ning neytrallashtirish, nazorat qilish, himoyalash kabi amaliy, raqamli xavfsizlik, axborot monitoringi, filtrlash mexanizmlari kabi innovatsion hamda ijodiy, mustaqil va tanqidiy tafakkur madaniyatini rivojlantirish, manipulyativ san'at usullarini anglash, faol ijodkorlik kabi kreativ ahamiyati ochib berilgan;

ijtimoiy tarmoqlar ommalashuvi natijasida yuzaga kelgan shaxsiy-psixologik (hikikomori, befarqlik, "o'zimga bo'lsin"), kognitiv-intellektual (klipli tafakkur, iste'molchilik, refleksiv zaiflashuv), qadriyatlar inqirozi (qadriyatlar deformatsiyasi, gedonizm, eskapizm) va ijtimoiy-normativ (individualizm, kiberludomaniya) kabi axloqiy o'zgarishlarning oldini olishda konseptual ma'naviy-tarbiyaviy mezonlarining diniy-axloqiy normalar, ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va tartibga solish zarurati asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda yoshlarda o'ziga xos madaniy birlikni (ijtimoiy ong, qadriyatlar va madaniyatni shakllantirish) tashkil toptirish, ularning siyosiy-huquqiy va ma'naviy-axloqiy qarashlarini (nigilistik kayfiyatni, huquqiy ongsizlikni va ijtimoiy befarqlikni oldini olish) rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy media loyihalarini yaratish, huquqiy bloglar, podkastlar, "axloqiy challenge"lar ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan;

ijtimoiy tarmoqlarning iste'molchilik ruhidagi ommaviy madaniyatni targ'ib etish, aksilma'naviy kontentlarning tarqatish, ma'naviy relyativizm, fuqarolik passivligini keng yoyish kabi destruktiv ta'sini oldini olishda tolerantlik, dialogga tayyorlik, qonunlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish hamda ma'naviy-axloqiy yetakchilarning rolini oshirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

virtual olamdagi ijtimoiy me'yorlarning beqarorligi, empatiya tanqisligi kabi axloqiy muammolarning yoshlar dunyoqarashiga ta'sir xususiyatlarini (kiberagressiya va trolizm, internet-addiktsiya, axloqiy indifferentlik) kamaytirishda ma'naviy tarbiyaning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, "virtual axloq" (cyber ethics) darslarini joriy etish, axborot diyetasi va ongli iste'mol madaniyatini shakllantirish tamoyillari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi xususiyatlarini, yoshlar dunyoqarashi, qadriyat tizimi va axloqiy me'yorlarini kontseptual yondashuv asosida talqin qilishda, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida yuzaga kelayotgan ma'naviy-axloqiy transformatsiyaning turlari va bosqichlari ishlab chiqishda, virtual muhitda shakllanayotgan ijtimoiy munosabatlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy va ijobiy ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarda nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun axloqiy va ma'naviy kontent siyosatini shakllantirish bo'yicha mezonlar ishlab chiqish, tarbiyaviy platformalar, interaktiv kontentlar va raqamli etikani targ'ib qiluvchi metodikalar ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan ta'lim muassasalarida elektiv kurslar tashkil etish, kiberxavfsizlik va axloqiy javobgarlik, trolling, feyk axborot va manipulyatsiyani tanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash madaniyatini oshirishda, "raqamli tarbiya" dasturi ishlab chiqilishda, mahalla, OAV va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda targ'ibot olib borish, yoshlar ittifoqi, "Ijod" markazlari, NNTlar tomonidan "Media tarbiyachi" dasturi asosida tarbiyaviy videokontentlar tayyorlashda, "Mening mediamadaniyatim" tanlovlari va chellenjlari orqali ijobiy faollikni rag'batlantirishda, "Axloqiy kontent standarti"ni nisbatan muayyan me'yoriy talablar, onlayn maslahat platformasini yaratishda, shuningdek, ma'rifat soatlari, "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Falsafa", "Dinshunoslik", "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sirini aniqlashga oid olib borilgan tadqiqot natijalari

asosida:

ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sirini oldini olishda an'anaviy (ichki va tashqi targ'ibot, milliy kontentlarni boyitish, qarshi hujum) usullarni zamonaviy texnologiyalar (manipulyativ texnikalarni aniqlash va neytrallashtirish, barqaror ma'naviy ideal yaratish) bilan uyg'unlashtirish jozibadorlik va raqobatbardoshlikni oshirishi, shaxsiy faoliyatda barqaror muhitni shakllantirishiga doir ilmiy yangilik va xulosalardan Barqaror rivojlanish markazining 2024 – 2025-yillarda "Ma'naviy-axloqiy va madaniy tarbiya: an'anaviy g'oyalarning yangi bosqichi" mavzusidagi ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida yaratilgan "Virtual madaniyat markazi" platformasini amaliyotga tatbiq etishda foydalanilgan (Barqaror rivojlanish markazining 2025-yil 14-martdagi 539-son ma'lumotnomasi). Natijada, media makonni O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning natijalari bo'yicha axborot-tahliliy materiallar bilan boyitish uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

yoshlarning ijtimoiy mas'uliyat, demokratik qadriyatlar va fuqarolik faolligi kabi qarashlari dinamikasida ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalari haqiqatni yolg'ondan ajratish, siyosiy jarayonlarga xolisona baho berish va ongni manipulyatsiyadan himoya qilishda asosiy ma'naviy tayanch ekanligi, ochiq va pragmatik faol islohotlar esa siyosiy tizimga ishonchni kuchaytirishi hamda amaliy samaradorlik, natija va mas'uliyat mezonlari asosida baholashi, shaxsiy rivojlanish omillari erkin fikrlash, tanqidiy tafakkur va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishiga oid yangilik va tavsiyalardan O'zbekiston mahallalari uyushmasi 2024-yildagi ish rejasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar va sog'lom turmush tarzini tashkil etish, yoshlarni "Besh tashabbus olimpiadasi"ga jalb etish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish, yangilanish jarayonlari va tub islohotlarga daxldorlik hissini uyg'otish, tarixiy va muhim sanalarda ularni birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg'otish, Vatanni himoya qilishni eng sharaflı burch ekanligini keng targ'ib qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish kabi targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025-yil 2-apreldagi 02-09/376-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarning ular hayotiga ta'siri yuzasidan o'tkazilgan targ'ibot tadbirlari, uchrashuvlar hamda qo'llanmalar tayyorlashga xizmat qilgan;

ijtimoiy tarmoqlar vositasida axborot-psixologik xurujlarning ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy taraqqiyotga salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladigan metod va texnologiyalar ("Tasvirlar zarbasi", "xavfsiz aloqa tizimi", ijtimoiy tarmoqlarda "fakt-checking")ning neytrallashtirish, nazorat qilish, himoyalash kabi amaliy, raqamli xavfsizlik, axborot monitoringi, filtrlash mexanizmlari kabi innovatsion hamda ijodiy, mustaqil va tanqidiy tafakkur madaniyatini rivojlantirish, manipulyativ san'at usullarini anglash, faol ijodkorlik kabi kreativ ahamiyatiga doir xulosa va umumlashmalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining IV. yo'nalishida belgilangan

“Aholi o‘rtasida vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish, yangilanish jarayonlari va tub islohotlarga daxldorlik hissini uyg‘otish, tarixiy va muhim sanalarda ularni birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar” 23-bandi “Yoshlarda yuksak vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish, harbiylar, vatan himoyachilariga hurmat uyg‘otish, Vatanni himoya qilishni eng sharaflı burch ekanligini keng targ‘ib qilish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2025-yil 28-martdagi 03-366-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarning ular hayotiga ta‘siri yuzasidan o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari, uchrashuvlar hamda qo‘llanmalar tayyorlashga xizmat qilgan;

ijtimoiy tarmoqlar ommalashuvi natijasida yuzaga kelgan shaxsiy-psixologik (hikikomori, befarqlik, “o‘zinga bo‘lsin”), kognitiv-intellektual (klipli tafakkur, iste‘molchilik, refleksiv zaiflashuv), qadriyatlar inqirozi (qadriyatlar deformatsiyasi, gedonizm, eskapizm) va ijtimoiy-normativ (individualizm, kiberludomaniya) kabi axloqiy o‘zgarishlarning oldini olishda konseptual ma‘naviy-tarbiyaviy mezonlarining diniy-axloqiy normalar, ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillarini milliy-ma‘naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish va tartibga solish zaruratiga oid nazariy umumlashma va amaliy takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil ish rejasi II. Mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodologik ta‘minlash, besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish yo‘nalishi 2.3. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘limida keltirilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 7-apreldagi 2-13-21-1849-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarning ular hayotiga salbiy ta‘siri mavzusida o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlarining mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek,

tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaviy jarayonlarga ta'sirini tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy tarmoqlarning kelib chiqishi va zamonaviylashuvi, ijtimoiy tarmoqlar muhitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamda zamonaviy jamiyatda yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

XXI asr insonlarini virtual olamini yaratishga imkon yaratgan ijtimoiy tarmoqlarning kelib chiqish tarixi va uning zamonaviylashuvi hamda mazkur terminga turli jihatdan izohlar berib borilmoqda. Shu boisdan soha mutaxassislari va olimlarning ilmiy qarashlarini inkor etmagan holda tadqiqotda “Ijtimoiy tarmoq – bu muayyan maqsad, g'oya va istaklardagi insonlar hamda ijtimoiy tuzilmalarni o'zida birlashtiruvchi hamda ularni ma'naviy-mafkuraviy, siyosiy jihatdan harakatga keltiruvchi vositadir” deya ta'rif berilgan. Bunday qulaylik va imkoniyatlarni beruvchi ijtimoiy tarmoqlarning yaratilishidan maqsad quyidagilar:

- ma'lumotlarni almashish. Ijtimoiy tarmoqlarning yaratilishining asosiy va qolgan maqsadlarni o'zida jamlovchi maqsad deyish mumkin.

- ta'lim va o'zi uchun qiziqarli ma'lumotlarni o'rganish. Tarmoqlarning jozibadorligini oshiruvchi va foydalanuvchilarni o'ziga jalb etuvchi eng asosiy xususiyatdir.

- foydalanuvchiga ta'sir o'tkazish. Hozirda ijtimoiy tarmoqlar insonlarni manipulyatsiya qilishning samarali vositasidir.

- targ'ibot va tashviqot (marketing) qilish. Savdo-sotiq va ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tashkilot hamda firmalar o'zlari tomonidan yaratilgan mahsulotlarga xaridorni jalb etish, sotishda tarmoqlardan foydalanish odat tusiga kirgan. Tarmoqlarning mazkur xususiyati “bloggerlik” va “vaynerlik”ni rivojlantirdi.

Dissertant fikricha, ushbu maqsadlarni amalga oshirish jarayoni tarixiy jihatdan ijtimoiy tarmoqlarning vujudga kelish o'tmishini o'rganishni taqozo qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarning yaratilish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, uni ikki davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, internet paydo bo'lgunga qadar davr va internet paydo bo'lgan vaqtdan keyingi davr. Ijtimoiy tarmoq atamasi to'liq shaklda internetning paydo bo'lishi va unda turli chat va dasturlarning yaratilishi natijasida kirib kelgan. Aslida ijtimoiy tarmoqlar oflayn shaklda, real hayotda ma'lum jamoa, hudud doirasida mushtarak maqsadlar uyg'unligi ko'rinishida mavjud bo'lgan.

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida uning eng katta erishgan natijasi ijtimoiylashuv hisoblanadi. Ijtimoiylilik jamoaviylikdir, ya'ni birlashishdir. Insonlar jamoalarga birlashuvi natijasida ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirdi. Shu ma'noda ijtimoiylashuv o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, jamiyat va guruhlar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yishning hamda kishilik jamiyatidagi siyosiy tizimlar, munosabatlar vujudga kelishining omilidir.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarning yaratilishi va rivojlanishi bugungi kun jamiyati uchun juda katta burilish yasagani ta'kidlangan. Uning ikkinchi yangi

tarixini uchta katta davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Xususan, birinchi davr – elektron aloqalar davri (1960-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshi), ikkinchi davr – virtual jamoaviylik davri (1990-yillarning boshidan 2000-yillarning boshigacha) va uchinchi davr – ijtimoiy tarmoqlar asri (2000-yillarning boshidan hozirgi kungacha). Ijtimoiy tarmoqlarni davriylashtirish odatda ularning rivojlanishi va funktsionalligi, ommabopligi va jamiyatga ta'sirining o'zgarishi asosida amalga oshiriladi<sup>6</sup>.

Tadqiqotchilarning fikricha, yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlarning jozibadorligining asosiy sabablari quyidagilardir:

- shaxsiy munosabatlarga asoslangan aloqalarni yo'lga qo'yish qobiliyati va manfaatlar asosida foydalanuvchilar guruhini tashkil qilish, o'z hamjamiyatini yaratish imkoniyati;

- virtual muloqot erkinligi va aloqalar, munosabatlar o'rnatishning ixtiyoriyligi;

- ijtimoiy tarmoqning media-resurslaridan foydalangan holda o'z shaxsiy pozitsiyasini ommaviy pozitsiyaga aylantirish qobiliyati;

- odatiy hayot tarzi bilan cheklanmagan holda keng muloqotni amalga oshirish, muloqot erkinligi tufayli virtual hayotda osonlik bilan amalga oshiriladigan va odatiy hayotda amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladigan individual shaxsiy fazilatlarni amalga oshirish imkoniyati;

- real hayotda u yoki bu sabablarga ko'ra umidsizlikka uchragan holda his-tuyg'ularini boshdan kechirish, tarmoqda turli rollarni dramaturgik tarzda o'ynash imkoniyati;

- axborot makonining resurslari hisobiga amalga oshiriladigan o'z-o'zini rivojlantirish;

- onlayn hayotda birdamlik bildirish, sheriklar va do'stlar orttirish;

- so'zlashish va muloqot qobiliyatini rivojlantirish hamda o'ziga ishonch va shaxsiy o'zini o'zi anglash<sup>7</sup>.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviylashuvi insonning virtual muhitda o'zini erkin his etishi, shaxsiy mavqe va identifikatsiya masalalarida yangi formatlarning shakllanishiga olib keldi. Ular nafaqat shaxsiy aloqa vositasi, balki axborot manbai, biznes platformasi, siyosiy tashviqot maydoni va madaniyatni shakllantirish vositasiga aylangan. Ularning ta'siri shunchalik kengki, ular jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarni, xulq-atvor stereotiplarini va hatto ijtimoiy ongini ham o'zgartirmoqda. Shu boisdan, yoshlar ma'naviyatini asrashda media savodxonlikni oshirish, axborot muhitini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish va ma'naviy immunitetni mustahkamlash ustuvor vazifalardan sanaladi. Zamonaviy axborot muhitida an'anaviy tarbiya shakllarining zaiflashishi fonida, axloqiy-tarbiyaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish, innovatsion usullar bilan boyitish talab etiladi. Shu bois, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda an'ana

---

<sup>6</sup> Classmates. // <https://ru.wikipedia.org/wiki/Classmates>

<sup>7</sup> Курбатов.В.И. Молодежная субкультура в сетевых сообществах: приоритеты молодежи в социальных сетях и трансформация социально-информационного поведения / В.И.Курбатов, Ю.Г.Волков, К.В.Воденко // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, 2019. – №10. – С.89-90.

va zamonaviylik uyg'unligi, falsafiy va axloqiy qadriyatlarning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omil sifatida”** deb nomlangan bo’lib, mazkur bobda zamonaviy dunyoning ijtimoiy tarmoqlar ta’siridagi manzaralari, ijtimoiy tarmoqlarning inson ongiga ta’sir ko’rsatish xususiyatlari va virtual g’oyaviy kurash maydoni sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

G’oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo’lib borayotgan davrda bu kurashlarning in’ikosi dunyoning turli manzaralarida o’z aksini topadi. Ayni bu manzaralar ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yangicha qiyofa kasb etmoqda. Xususan, geosiyosiy, geomafkuraviy va axborot-kommunikatsion kabi manzaralari shulardandir. Ijtimoiy tarmoqlarning geosiyosatdagi ishtiroki kundan-kunga ortib bormoqda va uning yangi qirralarini vujudga keltirmoqda, chunki u axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va davlatlar o’rtasidagi munosabatlarga ta’sir ko’rsatishda muhim vositaga aylandi. Shu bilan birgalikda, mafkuraviy jarayonlarga ham ta’sir o’tkazgan holda geomafkuraviy muhitni yaratmoqda.

Tadqiqotda, geomafkura – xalqaro manfaatlar yuzaga kelishi bilan paydo bo’lgan, muayyan qonuniyat va mezonlarga asoslangan, ma’lum bir millat yoki davlatning milliy manfaatlarini o’zida ifoda etuvchi, evalyutsion xarakterga ega, geosiyosat va mafkura o’rtasidagi uzviy aloqadorlikka asoslangan harakatlar yig’indisidir, degan fikr berilgan. Aniqroq aytganda, geosiyosat mafkuraviy xarakter kasb etsa, geomafkuraga aylanadi. Ijtimoiy tarmoqlar geomafkurada axborotni tarqatish, identiklikni shakllantirish va global ta’sirni kuchaytirishda muhim vosita bo’lib, mafkuraviy urushlarning zamonaviy maydonidir. Manfaatdor kuchlar tomonidan o’zlarining maqsadlarini amalga oshirishda mafkuraga alohida e’tibor bermoqda. Bu o’z navbatida, dunyoda geomafkuraviy jarayonlarni keltirib chiqarmoqda. Ayni ana shunday geomafkuraviy jarayonlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirish natijasida quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda deyish mumkin:

- dunyodagi zo’ravonlik;
- yetakchilikka intilish;
- ma’naviy zaiflik;
- geomafkuraviy beqarorlik.

G’oyaviy bo’shliq, tartibsizlik va beqarorlik hukum surgan joyda mafkuraviy hurujlar kuchayishi shubhasizdir. Aholining keng qatlamlari, xususan yoshlarning ongini egallashga urinishlar ortib boradi. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ma’naviy ta’siri xilma-xilligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotchi fikricha, axborotlar uch maqsaddan birini ko’zlagan holda tarqatilishini ta’kidlash lozim. Birinchisi, ezgu g’oyani targ’ib qilish, ikkinchisi yovuz g’oyani targ’ib qilish va uchinchi qanday g’oya bo’lishidan qat’iy nazar targ’ib qilish. Ikkinchi va uchinchi maqsadga xizmat qiladigan axborotlarni iste’mol qilishdan cheklab, faqat birinchi maqsad uchun xizmat qiladiganlarining sonini ko’paytirish bizningcha o’rinlidir.

Tadqiqot ishi davomida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sirini bevosita yoshlarning o'zidan bilish va ularning bu boradagi qarashlarini o'rganish maqsadida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida onlayn so'rovnoma tashkil etilgan. So'rov natijalari asosida yoshlarning 53 foizi ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga va dunyoqarashiga ta'sir etishini tan olishi haqida xulosa qilingan<sup>8</sup>. Shu o'rinda ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy taraflari sifatida dunyoqarashning kengayishi va zamonaviylik, obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati, masofaviy o'qishlarda ishtirok etish, tezkor axborot almashinuvi, axborotlarni tanlash imkoniyati borligi ta'kidlangan<sup>9</sup>.

Shu bilan birgalikda, ijtimoiy tarmoqlarning afzalligi sifatida axborot va yangiliklarni har qanday vaqtda hamda joyda turib olish va tarqatish imkonini mavjudligi, o'zingiz qiziqtirgan soha bo'yicha joylashuvingiz va ma'lumotingizdan qat'iy nazar, siz o'zingiz uchun pul to'lamasdan ta'lim olish imkoniyati, xayriya ishlarini tashkil etish kabilarni keltirish mumkin. Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik jamiyatining an'anaviy shakllarini nafaqat o'zgartiryapti, balki yaqin kelajakdagi yangicha ko'rinishini o'zida namoyon qilayotganligi keltirilgan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar geosiyosiy, geomafkuraviy va axborot-kommunikatsion manzarani tubdan o'zgartirmoqda, natijada global kuchlar tarmoqlar orqali geomafkuraviy ta'sir doirasini kengaytirishga, hatto uni qayta shakllantirishga urinyotir. Bu ta'sirdan samarali va oqilona foydalanish jamiyatning rivojlanishiga xizmat qilsa, ularni noto'g'ri boshqarish yoki ularga tanqidsiz yondashish jiddiy ijtimoiy va ma'naviy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Bu platformalar orqali uzatiladigan axborot oqimi shaxsning kognitiv jarayonlari, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor modeliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ijtimoiy tarmoqlar inson ongida yangicha axborotlarni tezkor qabul qilish va qayta ishlash ko'nikmasini shakllantiradi, shu orqali uning dunyoqarashini kengaytiradi. Shu bilan birga, algoritmik asosda taklif etiladigan kontent inson ongiga ongli va ongsiz tarzda yo'naltirilgan manipulyativ ta'sir ko'rsatib, ma'lum bir g'oyaviy yoki madaniy yo'nalishga moslashtirib boradi. Bunday jarayon uzoq muddatda shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyatini pasaytirishi, real va virtual dunyo o'rtasidagi psixologik chegaralarni susaytirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan vayronkor g'oyalarga qarshi kurashda virtual muhitni tartibga soluvchi texnologik vositalar yaratish, foydalanuvchilar orasida media madaniyatni shakllantirish, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda xalqaro miqyosda hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bu chora-tadbirlar axborot makonini himoya qilish va yoshlar ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'siri va ularning oldini**

---

<sup>8</sup> Madraximov A. Ijtimoiy tarmoqlar: bunyodkor va vayronkor g'oyalar kurashi // “Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari”: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: MUXR PRESS, 2024. – B. 175.

<sup>9</sup> Муминов Н.А. Глобаллашув жараёни ва ахборот. // Глобаллашув жараёнлари ва ёшлар маънавияти мавзусидаги республика илмий-фамалий семинар материаллари тўплами. – Тошкент: ТАТУ, 2008. – Б. 5.

**olish mexanizmlari”** deb nomlanib, unda globallashuv sharoitida virtual borliqning o‘ziga xos xususiyatlari, virtual fazoning yoshlar ongi va dunyoqarashiga transformatsion ta’siri hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish usul va vositalari tadqiq etilgan.

Dunyoning globallashuvi unda kechayotgan jarayonlarning axborot texnologiyalarining rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog‘liqligi hech kimga sir emas. Umuman olganda, butun dunyoning virtuallashuvi natijasida davlatlar va mintaqalarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyotidagi ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni e’tiborga olgan holda uning salbiy g‘oyaviy-mafkuraviy ta’siridan xabardor bo‘lish, xususan, yoshlarimizni shu kabi tahdidlardan nari qilish dolzarb masaladir.

Tadqiqotda axborot almashinuvi va muloqotning virtuallashuvi natijasida quyidagi xususiyatlari tahlil etilgan:

- shaxsiy ma’lumotlarning yashirinligi;
- norasmiy ismlardan foydalanish (“nick” ingliz tilidan “taxallus” – kichraytiruvchi ism, taxallus);
- insonlar bilan bo‘ladigan suhbatlarda o‘zini tortish, begunalashuv, hayajonlanish kabi hislarning mavjud emasligi;
- til normalarini buzgan holda, hech qanday grammatik qoidalarga amal qilmagan holda suhbat qurish;
- mas’uliyatni his etmaslik.

Virtual borliqning insoniyat uchun ta’siri quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- inson hayotini turli darajadagi ma’naviy-axloqiy va madaniy me’yorlar asosida tashkil qilish va tartibga solishda;
- insonlar o‘rtasidagi aloqalarning yangi shakllarini tashkil etishda;
- jamiyat hayotining asosiy sohaları siyosat, iqtisod, san’at va turizmni rivojlantirishda;
- virtual olam bilan inson o‘zining hayot mazmunini belgilashi va o‘z ijodiy muhitini yaratishda;
- hayot va virtual borliq o‘rtasidagi chegarani ajratib olish va boshqalar shular jumlasidandir<sup>10</sup>.


